

*Xaitov Abdunosim Abdulakim o'g'li,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
"Ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: abduqosimxaitov@gmail.com*

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA AKMEOLOGIK POZITSIYANI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING MAZMUNI VA MOHIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarning, mazmuni, mohiyati, zamonaviy o'qituvchilarga qo'yiladigan talablarni takomillashtirish, pedagogika oliygohlaridagi mutaxassislar tayyorlash jarayonidagi imkoniyatlari va mavjud holatlaridan kelib chiqib, mazkur ta'lim muassasalarida o'qitish tizimiga innovatsion texnologiyalarining joriy etilishi jarayonlari mavzuning muammosi sifatida ochib berishga harakat qilingan.

***Kalit so'zlar.** Akmeologiya, pozitsiya, mazmun, mohiyat, talabalar, innovatsion metodlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, bo'lajak o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishi, subyektiv, obyektiv omillar.*

СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ФОРМИРОВАНИЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЗИЦИИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация

В данной статье на основе факторов, влияющих на формирование акмеологической позиции у будущих учителей, содержания, сущности, совершенствования требований к современным учителям, возможностей и существующих условий в процессе подготовки специалистов в педагогических вузах, в данных образовательных учреждениях предпринята попытка раскрыть процессы внедрения инновационных технологий в систему образования как проблему темы.

***Ключевые слова:** акмеология, положение, содержание, сущность, студенты, инновационные методы, современные информационные технологии, овладение знаниями, навыки и квалификация будущих учителей, субъективные и объективные факторы.*

THE CONTENT AND ESSENCE OF THE FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF AN ACMEOLOGICAL POSITION IN FUTURE TEACHERS

Abstract

In this article, based on the factors influencing the formation of acmeological position in future teachers, the content, essence, improvement of the requirements for modern teachers, possibilities and existing conditions in the process of training specialists in pedagogic universities, in these educational institutions an attempt was

made to reveal the processes of introducing innovative technologies into the educational system as a problem of the topic.

Key words: *Acmeology, position, content, essence, students, innovative methods, modern information technologies, acquisition of knowledge, skills and qualifications of future teachers, subjective and objective factors.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o‘rin olishi va jamiyatdagi ma‘lum muammolarga yechim topish albatta o‘z kelayotgan yosh avlod vakillarini ta‘lim-tarbiyasiga har jihatdan bog‘liq ekanligini ta‘kidlaydi. Jumladan: farzandlarimizning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga bolalikdan e‘tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yanada ko‘plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman deb yurtimiz yoshlariga yuksak ishonch bildiradi davlatimiz rahbari o‘z nutqlarida [1]. Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirish muammosini tadqiq etar ekanmiz, avvalo akmeologiya, akmeologik pozitsiya tushunchalari haqida yetarlicha ma‘lumotga ega bo‘lishimiz lozimdir.

Akmeologiya- (grekcha *akme - cho‘qqi, takomil, nimaningdir yuqori bosqichi, gullagan davr yetuklik davr* ma‘nolarini anglatadi) [2, c.220] *ilmu-* fanning shunday yangi tarmog‘iki, u insonni o‘z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot-faoliyatining turli bosqichlarida o‘zidagi eng kuchli qobiliyatlarning namoyon qilishning kompleks masalalarini o‘rganadi. *Pozitsiya-* (lotincha *positio* holat, vaziyat) - biror bir masala yuzasidan bildirilgan fikr, nuqtai nazar; dalil, voqea, hodisaning muayyan bahosi; shu bahoga muvofiq amalga oshirilgan hatti-harakat [3, b.201].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Akmeologiya tushunchasini ilk bor fanga rus olimi N.A.Ribnikov tomonidan 1928-yilda kiritilgan bo‘lib, uning o‘zi bu fan predmetini yetuk insonlarning shakllanish jarayonidir, deb ta‘riflagan edi. Lekin tom ma‘nodagi jiddiy fan sifatida uning shakllanishiga rus psixologi B.G.Ananyev va uning izdoshlari bo‘lgan petrburglik olimlar alohida ulush qo‘shishgan. Ularning ta‘kidlashicha, akmeologiyaning predmeti - odamning ijodiy salohiyati bo‘lib, u inson tomonidan o‘ziga inoyat etilgan barcha imkoniyatlari va iqtidorini qanday qilib, qanday shart-sharoitlarda, qaysi qonuniyatlar ta‘sirida ro‘yobga chiqarishni kompleks tarzda o‘rganadi.

Pedagogik olim V.A.Slastenin bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalalarini tadqiq etar ekan, yuksak professionalizm, ya‘ni kasbiy yetuklikka erishishning obyektiv omillariga olingan ta‘limning sifatini, sub‘ektiv omillariga esa shaxsning qobiliyati, kasbiy yo‘nalganligi, pedagogik vazifalarni samarali hal qila olishdagi mas‘uliyati va mutaxassislikka yondashuvini kiritadi [2, c. 55–63].

Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik pozitsiyaning shakllantirilib borilishi ularda yangicha fikrlash bilan birga ta‘limni qulay optimal shakllarini ishlab chiqishlariga asos bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqola umum qabul qilingan metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, talabalarda akmeologik pozitsiyani shakllantirish omillari tadqiq etilgan.

Tahlil va natijalar

Akmeologik izchillik, ya'ni mukammallik cho'qqisiga intilish, bu- inson hayotining ajralmas xususiyati bo'lib, bu ibora orqali shaxsiy, kasbiy rivojlanish va o'z-o'zini takomillashtirishga moyillikni anglatiladi. Bunday izchillik insonning ijodiy potensialida va kasbiy mahoratida o'z ifodasini topadi. Akmeologik izchillik inson hayot-mamotining ontologik attributidir, ya'ni insonning tug'ilganidan toki umrining oxirigacha bo'lgan individual rivojlanish yo'lini qamrab oladi .

Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirish bir qancha omillarga bog'liq. Ya'ni, Oliy ta'lim muassasalari va ulardagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat-monitoringini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan mas'uliyatni oshirish, pedagog mutaxassislarda akmeologik motivatsiyani shakllantirib borishdan iboratdir.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida – DTS talablari asosida shaxsda maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorlash jarayonidir.

Darhaqiqat, bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirish omillari murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanib, uning negizida muvaffaqiyatli ishlashni ta'minlovchi imkoniyatlar, shaxsning yo'nalganligi, kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy sifatlar ham asosiy mezonlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirish omillari birinchi navbatda ularni pedagogik kasbiga yo'nalganligidir.

Kasb tanlash murakkab va motivatsion jarayon hisoblanib, shaxsning to'g'ri kasb tanlashi insonning hayotdan qoniqishi, ijtimoiy mavqeini aniq belgilab olishiga sabab bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni akmeologik pozitsiyani shakllantirishning muhim omillaridan yana biri bu shaxsning mavjud mehnat tajribasi sanaladi. Aslida mehnat tajribasi kasbiy amaliy faoliyat natijasida yuzaga keluvchi kasbiy ko'nikma va malakalarning yig'indisi sifatida ifodalanadi. Biroq, bo'lajak mutaxassislar, xususan, bo'lajak o'qituvchilarda mehnat tajribasining yetishmasligi o'zlaridagi mavjud kasbiy bilimlarini hali amaliy faoliyatda sinab ko'rmaganliklari, real kasbiy faoliyat talablari haqida aniq tasavvurlarining yetarli emasligidan guvohlik beradi. Bu esa ta'limning mazmun va metodik aspektlariga, kasbiy istiqbol rejalarini belgilashga, o'quv-tarbiya jarayonining shaxs imkoniyatlariga asoslangan optimal amaliy sharoitini yaratishga to'sqinlik qiladi. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarni akme darajadagi shaxs bo'lib shakllanishlari jarayonida nazariya va amaliyot integratsiyasini yo'lga qo'yishning samarali metodik aspektlarini ishlab chiqish va tatbiq etish, talabalardagi mehnat tajribasining shakllanishi, shuningdek, faoliyatli yondashuv darajasining ortishiga olib keladi.

Ma'lumki, bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirib borilishi aniq maqsadga yo'naltirilgan, tizimli jarayon hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarni kelgusida tanlagan kasbiga moslashuvini ta'minlash bilan ham bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, pedagog olim bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoni muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi omillarni ham ikki turkumga bo'ladi: sub'ektiv (ichki) va obyektiv (tashqi) omillar. Muallif bo'lajak mutaxassisning kasbiy moslashuviga ta'sir etuvchi ichki omillarni uning individual-psixologik sifatlari bilan bog'lasa, obyektiv omillarga muhit va ta'lim shart-sharoiti bilan bog'liq jihatlarni taklif etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllanish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarning quyida 4 ta guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh omillari ijtimoiy-iqtisodiy bo'lib, u taraqqiyotning turli boqichlarida jamiyat hayotiga kirib kelayotgan yoshlarga o'zlaridagi mavjud kuch va imkoniyatlarini sarflashga turli sohalarni taklif etadi.

Ikkinchi guruhni ijtimoiy-psixologik omillar tashkil etib, mazkur jarayonda shaxs ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi mikro, mezo va makro muhit ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy muhit ta'sirida shaxsning qadriyatli yo'nalganligi, kasblarning turli guruhlariga munosabatning o'ziga xos ijtimoiy ko'rsatmalari va stereotiplar shakllanadi.

Uchinchi guruh asl psixologik omillardan iborat bo'lib, bu shaxsiy qiziqish va moyilliklar umumiy va xususiy qobiliyatlar, aqliy va shaxsiy rivojlanish darajasi xotira xususiyatlari, diqqat motorikasining o'ziga xosligi va shu kabilar.

To'rtinchi guruh individual psixofiziologik xususiyatlarni o'z ichiga olib, ulardan ko'p o'rganilgani nerv tizimining asosiy xossalarini faoliyat turlariga munosabatini ta'siri masalasidir. Ular psixik jarayonlar kechishining dinamik tavsifnomalarini belgilaydi turli temperamentlar ko'rinishida ifodalanadi va ma'lum faoliyat turini bajarishga ko'maklashishi, yo aksincha uni qiyinlashtirishi mumkin bo'ladi .

Demak, mazkur fikrlar, ilmiy-pedagogik tadqiqot jarayonida olingan kuzatish va empirik tahlil natijalarini nazariy jihatdan tahlil etish, umumlashtirish natijasida bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirish jarayonining samaradorligi quyidagi omillar bilan asoslanadi:

- motivatsion omil – bo'lajak o'qituvchilarni o'z sohalari mohiyatidan xabardorlik darajasi;

- ijtimoiy omil – jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muhit va pedagoglik kasbining ijtimoiy nufuzi, shuningdek, talabalar tomonidan ijtimoiy normalarning o'zlashtirilishi, ijtimoiy tajribaning shaxsiy – kasbiy ustanovkalar tizimida qo'llanilishi;

- axborotli-mazmunli omil –tanlangan sohasini muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-nazariy, pedagogik-psixologik va maxsus-metodik bilim, malaka va ko'nikmalar majmuasi;

- faoliyatli omil – o'zlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni aniq vaziyatlar va zaruriy holatlarda tatbiq eta olish, o'zini-o'zi tahlil qilish va rivojlantirish motivatsiyasi;

- didaktik omil (vositalar) – maxsus jihozlangan (kompyuterlashtirilgan)
- o‘quv xonalarining mavjudligi; o‘quv manbalari (takomillashtirilgan o‘quv dasturlari, ma’ruza matnlari, elektron darsliklar, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, elektron ishlanmalar, grafik organayzerlar, auditiv vositalar), o‘quv jihozlari va qurollari, axborot texnologiyalari.

Mazkur omillarning mazmuni va mohiyatini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, kelajakda pedagog mutaxassislar tayyorlashga qo‘yiladigan mehnat bozorining zamonaviy talablaridan kelib chiqib, bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirishning mazmuni, bevosita ulardagi fiziologik, psixologik, ijtimoiy va tashkiliy jarayonlarni olib borilishi bilan belgilanadi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik pozitsiyasi o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda yuqori darajada qo‘llay olishida namayon bo‘ladi. Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri – bu insonning turli sohalarda maqsadli va mustaqil faoliyatini tashkil etishidir. Shunday ekan bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirishda motivatsion, ijtimoiy, axborotli-mazmunli, faoliyatli, didaktik omillarga alohida e’tibor qaratish maqsadga maolikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor vazifalari “Harakatlar strategiyasi”. –T.: O‘zbekiston 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari.–T.: O‘zbekiston, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag‘shlangan tantanali marosimda so‘zlangan ma’ruzasi. 2018-yil, 10-dekabr.
4. Karimov I.A Barkamol avlod – O‘zbekiston kelajagining poydevori. – T: O‘zbekiston, 1997.
5. Mardonov Q.Sh. Bo‘lajak o‘qituvchilarning akmeologik pozitsiyasini shakllantirish texnologiyasi. –T.: Fan, 2019.
6. Nishonova Z. O‘quvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatish. –T.: TDPU, 2015.
7. Tillaeva G.H. Akmeologiya asoslari. –T., 2014.
8. Деркач А.А., Кузьмина Н.В. Акмеология: пути достижения вершин профессионализма. – М.,1993. – С.220
9. Акмеология. Хрестоматик луғат. Ильин В.В., Пожарский С.Д. 2004. - 201 б.
10. Маркова А.К. Психологические критерии и профессионализма учителя // Педагогика. 1995, № 6. - С. 55–63.
11. Komilov N. O‘qituvchilarning akmeologik pozitsiyasini shakllantirish. –T Cho‘lpon, 2016.
12. Xudoyqulov X. J. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. –T.: Innovatsiya –ziyo, 2020.